

## BOYSUNLIK MUDARRISLAR

*Tojiyev Jasur Alisher o‘g‘li, Termiz davlat pedagogika instituti  
o‘qituvchisi*

### TEACHERS FROM BOYSUN

*Tojiev Jasur Alisher oglu, teacher at Termez State Pedagogical Institute*

#### УЧИТЕЛЯ ИЗ БОЙСУНА

**Тоджисев Джасур Алишер оглы, преподаватель Термезского государственного педагогического института**

**Annotatsiya:** Maqola Mulla Xudoyberdi Boysuniyning innovatsion g‘oyalari, diniy va dunyoviy bilimlarni birlashtirishga intilishi, bu yo‘lda chekkan qiyinchiliklari, shuningdek, Mulla Do‘st Nodir Boysuniyning ilm yo‘lidagi matonati va jamiyatdagi mavqeyi haqida batafsil ma‘lumot beradi. Bu ikki boysunlik mudarrisining merosi mintaqqa ma‘rifatparvarlik harakatiga qo‘sghan muhim hissasi sifatida baholanadi.

**Kalit so‘zlar:** Mulla Xudoyberdi Boysuniy, Mulla Do‘st Nodir Boysuniy, Hududiya madrasasi, din va dunyoviy fanlar, mudarris.

**Abstract:** The article provides detailed information about the innovative ideas of Mulla Khudoyberdi Baysuni, his desire to combine religious and secular knowledge, the difficulties he faced on this path, as well as Mulla Do‘st Nodir Baysuni’s perseverance in the path of knowledge and his position in society. The legacy of these two Baysuni mudarris is considered an important contribution to the regional enlightenment movement.

**Keywords:** Mulla Khudoyberdi Baysuni, Mulla Do‘st Nodir Baysuni, Khududiya madrasah, religion and secular sciences, mudarris.

**Аннотация:** В статьедается подробная информация о новаторских идеях Муллы Худойберди Байсуни, его стремлении объединить религиозные и светские знания, трудностях, с которыми он столкнулся на этом пути, а также о настойчивости Муллы Дуст Нодира Байсуни на пути знаний и его положении в обществе. Наследие этих двух мударрисов Байсуни считается важным вкладом в региональное просветительское движение.

**Ключевые слова:** Мулла Худойберди Байсуни, Мулла Дуст Нодир Байсуни, медресе Худудия, религия и светские науки, мударрис.

**KIRISH.** Boysun zamini azal-azaldan ilm-ma‘rifat o‘choqlari, buyuk allomalar va fozil insonlar yurti bo‘lib kelgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Boysundan yetishib chiqqan mudarrislar nafaqat o‘z hududida, balki butun Buxoro amirligi miqyosida ham katta nufuzga ega bo‘lishgan. Ular o‘z davrining dolzarb muammolariga yechim izlab, ta’lim tizimini isloh qilish, yangi fanlarni joriy etish va erkin fikrlashni targ‘ib qilish yo‘lida mardona kurashganlar. Ushbu maqolada Boysunning ana shunday ilg‘or fikrli, jasur va ilmga tashna ikki farzandi – Mulla Xudoyberdi Boysuniy va Mulla

Do‘st Nodir Boysuniyning hayoti, faoliyati va ularning ma‘rifiy merosi haqida so‘z yuritamiz.

**MUHOKAMA.** Mudarris (arab. — dars beruvchi) — Madrasa o‘qituvchisi. Mudarrislar o‘qitiladigan muayyan fandan dars bergan. Hozir xorijiy Sharq mamlakatlari, shuningdek, O‘zbekistondagi Madrasa va diniy universitetlarda faqat diniy ilmlardan emas, dunyoviy fanlardan dars beruvchilar ham Mudarris deb ataladi[5].

O‘quv jarayonini tashkil etish odatda, mudarrislarning zimmasida bo‘lib, ular quyidagi uch toifaga bo‘lingan: birinchi toifa - a’lo darajali

mudarrislar deb atalgan ularga qozi ul-quzzot, raisi kalon, shayx ul-isлом, oxun, a'lam, mufti askar kirgan. Ikkinchи toifa — o'rta darajali mudarrislar deb atalgan. Bu toifadagi mudarrislarni kiygan kiyimlariga qarab banoraspush va beqasampush deb atashgan. Bilim jihatidan esa ushbu toifaga chiqqan mudarrislar muftiy darajasiga erishganlar. Mazkur toifadagi mudarrislar taxminan 200 nafar bo'lib, ularni yana avsata tadrisy — o'rta mudarrislar deb ham ataganlar.

Uchinchi toifa — quyi darajadagi mudarrislar hisoblanib, ularni asfol tadrisy deb atashgan. Ushbu toifadagi mudarrislar imom mudarrislar, ba'zan beqasambapush deb ham atalgan. Imom mudarrislarning soni 300 dan ortiqroq bo'lgan. Madrasalar mudarrislar (madrasada tahsil oluvchi talabalarga dars bergan, ma'ruza qilgan) soni ularda ta'lim oluvchilar soniga qarab belgilangan. Buxoro madrasalarida dars beruvchi mudarrislarning soni XX asr boshlarida taxminan 800 nafar deb ko'rsatiladi[1].

Boysunning Tuzbozor mahallasiga kiraverishda, bugungi kunda "Samo" kinoteatri o'rnida, 1870-yilda Buxoro amiri Muzaffarxon farmoni bilan me'moriy ahamiyatga ega bo'lgan "Hududiya" madrasasi qad rostlagan. Ushbu ta'lim maskanining bunyod etilishidan biroz o'tib, amir Abdulahadxon hukmronligi davrida ikkinchi madrasa qurilgan va bu ikki bino qo'sh madrasa nomi bilan mashhur bo'lgan. Bu majmuuning o'ziga xos tuzilishi bo'lib, markaziy hovlida yopiq, gumbazli sardoba (suv ombori) joylashgan edi. "Hududiya" madrasasida Mullo Xudoyberdi Boysuniy, Mullo Hol Oxund, Mirzo Abduholiq singari mudarrislar ilm-fan va tahlil bilan shug'ullanganlar[3].

Mulla Xudoyberdi Boysuniy, Boysunda dunyoga kelgan bo'lib, Buxoro shahridagi madrasada ta'lim oldi. U tezda o'z davrining yetakchi mudarrislaridan biri bo'lib, keng tanilgan ilm sohibiga aylandi. Niyozquli nomli madrasada talabalarga saboq bergan Mulla Xudoyberdi Boysuniy alohida hurmat va e'tiborga sazovor bo'lgan. O'zbekiston Milliy universiteti professori Begali Qosimovning ta'kidlashicha, amir Abdulahad ushbu madrasaga juda e'tiborli bo'lgan, hatto ba'zi mudarrislarning janozalarida shaxsan ishtirok etgan. Bundan tashqari, bu madrasa faqat eng kuchli, bilimdon va har tomonlama yetuk mudarrislarni tanlab olgan. Ular faqat dars berish bilan cheklanib qolishmagan, balki mavjud eskirgan o'qitish usullarini dadil tanqid qilib, ulardan voz kechishga

chaqirishgan. Shuningdek, ular o'qitishning yangi, ilg'or usullarini targ'ib qilib, maktab va madrasalarni isloh qilish g'oyasini olg'a surishgan. Mulla Xudoyberdi Boysuniy ana shunday islohotchi (reformator) mudarrislar qatorida salmoqli o'ringa ega bo'lgan. Uning safdoshlari Mulla Fozil G'ijduvoni, Abdulla Xo'jandiy, Mo'minxo'ja Vobkandiy, Xo'ja O'zbeklarning qarashlari va g'oyalari o'zbek, tojik, turkman va tatar talabalariga katta ta'sir ko'rsatgan.

Buyuk ma'rifatparvar va ilm-fan namoyandasি Shaxobiddin Marjoniy (1818-1889) o'zining nodir ilmiy asari — "Kitobi mustafad al-axbor fi ahvoli Qozon va Bulg'or" ("Qozon va Bulg'orning ahvoli xususida foydalilanigan xabarlar")ning 42-43-sahifalarida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Unda Marjoniyning hijriy 1254-60-yillarda (milodiy 1838-1844-yillar atrofida) Buxoroning nufuzli ta'lim maskanlaridan biri bo'lgan Xalifai Niyozquli madrasasida tahsil olganligi bayon etiladi. U ushbu dargohda Abdulla Xo'jandiy, Mulla Fozil G'ijduvoni, Xo'ja binni O'zbek, al-Afsanjiy va alohida ehtirom bilan Hoji Mulla Xudoyberdi Boysuniy kabi buyuk olimlardan ilm o'rganganini ta'kidlaydi. Bu qaydlarda g'oyat muhim bir jihat diqqatimizni tortadi: Mulla Xudoyberdi Boysuniyning "Hoji" unvoni bilan zikr etilishi. Bu fakt, Boysuniyning muqaddas haj safarini ado etganini va shu bilan "hoji" sharafli unvonini olganini shubhasiz tasdiqlaydi. Ko'plab manbalar va diniy an'analar tahliliga ko'ra, ushbu muborak ziyyarat Mulla Xudoyberdi Boysuniyning umrining so'nggi yillarda, ya'ni keksaygan chog'ida amalga oshirilgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Zero, musulmon olamida haj ibodati ko'pincha hayotning yetukroq davriga to'g'ri keladi va bu ruhiy-ma'naviy tayyorgarlikni ham talab qiladi.

Ma'rifatparvar olim Sh.Marjoniy, G'ijduvonlik Fozil domla, Mo'min Xo'ja Vobkandiy va Mulla Xudoyberdi Boysuniy kabi mudarrislar ta'lim tizimini isloh qilish tashabbuskorlari bo'lishgan. Ularning asosiy maqsadi keraksiz darslarni bekor qilish, maktab va madrasalarda o'qitish jarayoniga yangiliklar kiritishdan iborat edi. Bu islohotchilarning dasturida oltita muhim masala ilgari surilgan:

1. Qur'oni Karimdag'i diniy masalalarni odamlar erkin tushungan holda fikr yuritishlari ta'minlansin.
2. Shaxslarning boshqalarga ko'r-ko'rona ergashishi qat'iyan man etilsin.

3. Madrasalardagi “hoshiya” va “sharh” kabi quruq mazmunli va talabalarining 8-10 yilini bekorga oluvchi, foydasiz darslar o‘quv dasturidan chiqarib tashlansin.

4. Madrasalarda Qur’oni Sharif va hadislarning tarjimalari, shuningdek, islam tarixi kabi muhim fanlar o‘qitilsin.

5. Arifmetika, tarix, jug‘rofiya (geografiya), tabobat (tibbiyot), handasa (geometriya), mantiq, falsafa va boshqa dunyoviy fanlarni o‘qitishga qarshilik ko‘rsatilmasin.

6. Islom dinini Muhammad payg‘ambar davridagi asl islom madaniyatiga qaytarish[3].

7. Erkin fikrlarni ilgari surish va bunday g‘oyalar bilan ommaga chiqish hech qachon oson bo‘lman. Bunday harakatlar asrlar davomida shakllangan qoidalarga kuchli zarba berardi. Shu sababli, bu kabi chiqishlar “shakkoklik” deb hisoblanib, qattiq jazo va shafqatsizlik bilan qarshi olinardi. Mulla Xudoyberdi Boysuniy bu xavflarni tushungan va o‘z safdoshlari bilan bunga tayyor edi. Demak, Mulla Xudoyberdi va uning hamfikrlari jur’atli, mard va jasur insonlar bo‘lganlar. Amirning keskin qarshiligiga duch kelgan Mulla Xudoyberdi Boysuniy, domla Fozil G‘ijduvoniy va Mo‘minxo‘ja Vobkandiy qamoqqa tashlanib, qattiq jazolarga tortildilar. Marjoniy esa Buxoroni tark etib, Qozonga jo‘nab ketishga majbur bo‘ldi. Zindonga tashlangan Mulla Xudoyberdi va uning safdoshlariga amirning buyrug‘i bilan orqalariga 75 darra urilgach, ular tavba qilishga majburlandi va o‘z faoliyatlarini davom ettirmaslikka qasam ichishga undaldi. Ushbu voqeа ularning mudarrislikdan butunlay chetlatilishi bilan yakunlandi. Professor Begali Qosimov o‘zining “Salom, kelajak” asarida Shaxobiddin Marjoniy haqida yozar ekan, uning zabardast ustozlaridan biri sifatida Mulla Xudoyberdi Boysuniyni alohida eslab o‘tadi. Uni jahongashta va kitob shaydosi deb ta’riflaydi. Shuningdek, ilm yo‘lida “mujarrad”, ya’ni oila qurmay, tanholikda umr kechirganligini ham qayd etadi. Professor Begali Qosimov Mulla Xudoyberdi Boysuniyning vafot yilini 1847-yil deb ko‘rsatganligi bois, bu sanaga qariyb 150 yil to‘lganligi ma’lum bo‘ladi. Asli Boysunlik Buxoroi Sharifda shuhrat qozongan, islohotchi Mulla Xudoyberdi Boysuniy shon-sharafga burkangan ajdodlarimiz orasida eng faxrli o‘rinlardan birini egallaydi.

XIX asrning o‘rtalarida, bugungi Rabot qishloq yig‘inidagi Ko‘chkak qishlog‘ida Mulla Do‘st Nodir Boysuniy dunyoga kelgan. U oilada uchinchi farzand bo‘lgan. Otasi usta Qosim hunarmand (kosib) bo‘lsada, ilm-ma’rifatning qadr-qimmatini chuqr anglaganligi sababli, o‘g‘lining savodini chiqarishi va puxta bilim egallashi uchun barcha sharoitlarni yaratib bergen. Mulla Do‘st Nodir Boysuniy dastlab ona qishlog‘ida boshlang‘ich ta’lim olib, so‘ngira Boysundagi madrasada o‘qishini davom ettirgan. Keyinchalik, bilimini yanada oshirish maqsadida ilm markazi bo‘lgan Buxoroi Sharifga yo‘l oladi va u yerda madrasa tahsilini yakunlab, adabiy ijod bilan ham mashg‘ul bo‘ladi. U ilmda yuqori darajalarga erishib, yirik ulamo bo‘lib yetishadi va hayotining keyingi qismini Buxoroda o‘tkazadi. Dastlab madrasada mudarris (o‘qituvchi), keyinchalik esa qozi (sudya) lavozimlarida xizmat qiladi. U o‘zining chuqr bilimi, o‘tkir zakovati va nazmiy asarlari bilan keng jamoatchilik orasida mashhur bo‘ladi. Mulla Do‘st Nodir Boysuniy Buxoro amiri Abdullaxonning saroyida ham faoliyat yuritgan, bu uning jamiyatdagi mavqeyi yuqori bo‘lganidan dalolat beradi. U “Nodir” va “Mulla Do‘st Nodir” taxalluslarida go‘zal she’rlar yozgan. Taniqli adib Sadriddin Ayniyning yozma manbalariga ko‘ra, Mulla Do‘st Nodir Boysuniy 1923-yilda vafot etgan. Uning ilmiy va adabiy merosi bugungi kunda ham tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilmoqda.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda, Boysun zaminidan yetishib chiqqan bu ikki ulug‘ zot – Mulla Xudoyberdi Boysuniy va Mulla Do‘st Nodir Boysuniy – o‘z davrida ilm-ma’rifat, ta’lim islohotlari va adabiyot rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan, jamiyat taraqqiyoti uchun kurashgan fidoyi shaxslardir. Ularning qoldirgan boy merosi bugungi kunda ham o‘rganishga va qadrlashga arziysi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Bobojanova Feruza. Buxoro amirligida ta’lim tizimi (XIX asr oxiri — XX asrning boshlari) // - Toshkent: Adib nashriyoti, 2014. 128 b.
2. Abdusattor Jumanazar. Buxoro ta’lim tizimi tarixi. Toshkent. 2017. - B. 55.
3. Tursunov S., Rashidov Q. Boysun. Toshkent: Akademhashr, 2011. -B. 560.
4. Xanikov. N. Описание Бухарского ханства. СПб. 1843. - C. 211-213.
5. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/mudarris-uz/>